

## KURASH SPORT TURI TARIXI

**Shodi Bobomurodovich Umirov**

Toshkent davlat agrar universiteti termiz filiali, jismoniy tarbiya o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Maqolada kurash sporti, uning shakllanish tarixi, o'zbek kurashi paydo bo'lishi va qoidalari bayon etilgan. Shuningdek, kurash sportining inson va jamiyat uchun ahamiyati ochibberilgan.

**Kalit so'zlar:** kurash, milliy kurash, Xalqaro kurash assotsiatsiyasi, Pahlavon Mahmud, Sodiq polvon, O'zbekistonda belbog'li kurash federatsiyasi, Komil Yusupov, kurash qoidalari.

### ABSTRACT

The article describes the sport of wrestling, the history of its formation, the origin and rules of Uzbek wrestling. The importance of wrestling for man and society was also revealed.

**Keywords:** kurash, national kurash, International Kurash Association, Pahlavon Mahmud, Sodiq Polvon, Belt Wrestling Federation of Uzbekistan, Komil Yusupov, rules of kurash.

### KIRISH

Sportga e'tibor yuksalgan jamiyat sog'lom jamiyat tarzida rivojanadi. Sportning barcha turlari borki, ular shaxsning nafaqat jismoniy barkamolligini, qolaversa ma'naviy rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Xususan, kurash sporti milliy qadriyatlar himoyasi bo'lib, o'zida milliy g'urur, iftixor va yorug' kelajakka ishonch tuyg'ularini mustahkamlashni ta'minlaydi. Kurashish san'ati ko'p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma'lum. Bu sport turi belgilangan qoidalar bo'yicha ikki sportchining yakkama-yakka olishuvidir. Kurash qadimda ayniqsa Yunonistonda keng tarqalib, antik olimpiada musobaqalaridan doimiy o'rin olgan. Bugungi kunda milliy kurashning xilma-xil shakllari Gretsiya, Italiya, Yaponiya, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Rossiya, O'zbekiston, Gruziya, Armaniston, Ozarbayjon, Qozog'iston va boshqa mamlakatlarda mavjud.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Zamonaviy sport kurashining asosiy qoidalari XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida Yevropaning bir necha



mamlakatlarida paydo bo'la boshladi. 1912-yil Xalqaro havaskorlar kurash federatsiyasi (FILA) tuzildi (hozir unga 144 mamlakat a'zo, Xususan, mamlakatimiz unga 1993-yilda a'zo bo'lgan). Xalqaro maydonda sport kurashining yunon-rum kurashi, erkin kurash, dzyudo, sambo va boshqa turlari keng tarqalgan.[1] Keyingi yillarda o'zbek kurashi ham alohida kurash turi sifatida dunyo miqyosida tan olina boshlandi. Kurash insonni kuchli, epchil, chidamli va irodali qilib tarbiyalovchi asosiy vositalardan biridir. Mutaxassislar nazorati ostida 12 yoshdan kurash bilan shug'ullanishga ruxsat etiladi. Kurash azaldan o'zbek turmush tarzining uzviy qismi bo'lganligini arxeologik topilmalar, tarixiy qo'lyozmalar tasdiqlaydi. Qadimgi Baqtriya hududidan topilgan Bronza davriga oid silindrsimon sopol idishda ikki polvon kurashi tasvirlangan. Yana bir artefaktda esa polvonlarning Kurash usullari namoyishi aks ettirilgan. Bu noyob topilmalar miloddan 1,5 mingyil ilgari ham kurash ajdodlarimiz turmush tarzining bir qismi bo'lganini anglatadi. Yunon yozuvchisi Klavdiy Elian (II-III asr) va boshqa tarixiy shaxslarning yozishicha, sak qabilasi qizlari o'zlariga kuyovni yigitlar bilan kurashib tanlaganlar. Keyinchalik qizlar kuyovni shart qo'yish yo'li bilan aniqlashgan va bu shartda kurash musobaqasi bo'lgan. Bunga o'zbek xalq qahramonlik dostoni — „Alpomish“dagi Barchin shartlarini misol qilib ko'rsatish mumkin. Ulardan biri ikki kurashuvchining biri o'z raqibining belbog'idan ushlab o'ziga tortadi, shu bilan birga o'z raqibidan qutulishning chorasini qiladi...[2]“. Bu ta'rif zamonaviy Kurash qoidalariga yaqindir. Shuningdek, Mahmud Koshg'ariyning „Devonu lug'otit turk“, Alisher Navoiyning „Hamsa“, „Holoti Pahlavon Muhammad“, Zayniddin Vosifiyning „Badoye' ul-vaqoye“, Husayn Voiz Koshifiyning „Futuvvatnomai sultoniy“, Z.M.Boburning „Boburnoma“ asarida kurash haqida qimmatli ma'lumotlar bor. IX-XVI asrlarda kurash xalq o'rtasida keng ommalashgan. Shu davrda Pahlavon Mahmud, Sodiq polvon kabilar dovrug'i butun Sharqqa tanilgan.

O'zbek xalq yakka kurashining belbog'li kurash deb nomlangan turi ham bor. Bunga taalluqli ko'plab topilmalar va tarixiy qo'lyozmalar mavjud. 5 ming yil ilgari Mesopotamiya hududidan topilgan haykalchada belbog'li kurash usulida musobaqalashayotgan polvonlar tasvirlangan. Xitoyning „Tan-shu“ qo'lyozmasida Dovon davlati(Farg'ona vodiysi) to'ylar, sayllar kurash musobaqalarisiz o'tmasligi yozilgan. Ahmad Polvon, Xo'ja polvon kurashning ana shu turida shuhrat qozonishgan(XIX asr oxiri — XX asr boshi). Chorizm va sho'rolar davrida mafkuraviy harakatlar negizida o'zbek milliy kurashini xalq turmush tarzidan sun'iy ravishda siqib chiqarishga harakat qilindi. XX asrning 90-yillari oxiriga kelib bu urinishlarga barham berildi.

1991-yilda kurashchilar sulolasi vakili, bir necha kurash turlari bo'yicha xalqaro miqyosda sport ustasi Komil Yusupov o'zbekcha kurashning xalqaro andozalarga moslangan quyidagi qoidalarini ishlab chikdi: Ku tushuvchilar 14 x 14 m dan 16x 16 m gacha bo'lgan, chetroq qismi qizil rangli „xavfli chiziq“ bilan belgilangan ko'k-yashil tusli gilamda tik turgan holatda bellashadilar. G'olib ishlatilgan usullar va maydondagi xatti-harakatlariga qo'yiladigan baholarga qarab aniqlanadi. Kurashda bo'g'ish, raqibga og'riq beruvchi usullar qo'llashga ruxsat etilmaydi, kurashuvchilarning biri ko'k, ikkinchisi yashil rangli yaktak (ayollar yaktak ichidan oq rangli futbolka) kiyadi, belga eni 4—5 sm li belbog' bog'lanadi, erkaklar 60, 66, 73, 81, 90, 100 kg va 100 kg dan ziyod, ayollar 48, 52, 57, 63, 70, 78, va 78 kg dan ziyod vazn toifalarida bellashadilar (bolalar, o'smirlar, o'spirinlar, yoshi ulug'lar va qizlar musobaqalarida ham yosh xususiyatlari hisobga olingan holda vazn toifalari belgilanadi).

## MUHOKAMA

1992-yilda O'zbekistonda kurash federatsiyasi tuzildi. Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA)ning 2003-yil Toshkentda o'tgan Kongressi har bir uchrashuvning qizg'in bo'lishini ta'minlash maqsadida rasmiy musobaqalarda bellashuv vaqtini 3 daqiqa qilib belgiladi. Ishlatilgan usullarga bajarilishiga mos ravishda „chala“, „yonbosh“, „halol“ baholari, qoidaga zid harakatlarga esa „tanbeh“, „dakki“, „g'irrom“ jazolari beriladi. Kurashuvchi „halol“ bahosini olsa (yoki raqibi „g'irrom“ bilan jazolansa) bu uning g'alabasini bildiradi. Ikki bor „yonbosh“ bahosini olish (yoki raqibining ikki bor „dakki“ deya jazolanishi) ham g'alabani anglatadi. „Chala“ baholari hisobga olib boriladi... Ballar tengligida oxirgi baho olgan kurashchiga g'alaba beriladi, kurashchilarning baho va jazolari soni teng holatda baho ustunlikka ega bo'ladi, jazolar soni teng bo'lsa oxirgi jazo olgan mag'lub hisoblanadi, agar barchasi teng (yoki baho va jazo olinmagan) bo'lsa, g'olib hakamlarning ko'pchilik ovozigga ko'ra e'lon qilinadi[3].

2001-yilda O'zbekistonda belbog'li kurash federatsiyasi tuzildi[4]. 1998-yil sentabrda Toshkentda 28 davlat (AQSH, Boliviya, Buyuk Britaniya, Gollandiya, Rossiya, O'zbekiston, Yaponiya va b.) vakillari Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (IKA) muassislari bo'lishdi va shu munosabat bilan bu yerda o'zbekcha kurash bo'yicha yirik xalqaro musobaqa o'tkazildi. Prezidentning „Xalqaro kurash assotsiatsiyasini qo'llab-quvvatlash to'g'risida“gi farmoni o'zbek milliy kurashining yanada rivojlanishini ta'minladi. Shu yili Toshkentda o'zbekcha kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati,

Rossiyaning Bryansk shahrida ayollar o'rtasida xalqaro musobaqa bo'lib o'tdi. IKA qoshida Xalqaro kurash akademiyasi tashkil etildi.

2000-yil O'zbekistonda kurash oyligi o'tkazildi. Bu oylik davomida 2 mln.ga yaqin kishi kurash gilamiga chiqdi. Buyuk Britaniyada IKA faxriy prezidenti Islom Karimov nomidagi an'anaviy xalqaro musobaqaga asos solindi. 2001-yildan Toshkentda Xalqaro kurash instituti faoliyat boshladi. IKA ga 66 ta milliy federatsiya a'zo bo'lib kirdi. Yevropa, Osiyo, Panamerika va Okeaniya kurash konfederatsiyalari tuzildi. Hozirgi paytda o'zbekcha kurash bilan xorijiy mamlakatlarda 600 mingdan ziyod kishi shug'ullanadi. Kurashning bu turi bo'yicha jahon, qit'a va mamlakatlar chempionatlari hamda O'zbekistonda at-Termiziy, Pahlavon Mahmud xotirasiga bag'ishlangan va boshqa ko'plab xalqaro musobaqalar muntazam o'tkaziladi. Osiyo olimpiya kengashi 2003-yilda kurashning bu turini Osiyo o'yinlari dasturiga kiritdi. Kurash bo'yicha o'tkaziladigan jahon chempionatlarida Bahrom Anazov, Isoq Axmedov, Maxtumquli Mahmudov, Kamol Murodov, Toshtemir Muhammadiyev, Akobir Qurbonov (O'zbekiston), Kubashxonim Elknur, Selim Totar o'g'li (Turkiya), Aleksandr Katsuragi, Karlos Xonorato (Braziliya), Pavel Melananets (Polsha), Xiroyoshi Kashimoto (Yaponiya) va boshqa g'olib chiqdilar va sovrindor bo'ldilar.

## NATIHLALAR

O'zbek xalqining an'anaviy sport turlaridan biri bo'lmish kurash uch yarim ming yillik tarixga ega. Kurash o'zbekcha so'z bo'lib, u qator qadimiy sharq adabiy manbalarida yakkama-yakka olishuv va ijtimoiy ko'ngilochar sport turi sifatida tilga olingan.

Ming yillik tarixga ega afsonaviy Alpomish eposida kurash olis o'tmishda O'zbekiston zaminida ommaviy tus olgan eng sevimli va nufuzli sport turi bo'lganligi yoritilgan.

Qadimda va o'rta asrlarda yashab ijod etgan qator faylasuf va tarixchilar o'z asarlarida kurashni alohida ehtirom ila tilga olganlar.

Ibn Sino kurash bilan shug'ullanmoq jon va tan sog'ligini ta'minlashning eng yaxshi vositasidir, deya e'tirof etgan. Shunga qaramasdan hali-hanuz kurash aynan qachon va qayerda paydo bo'lganligi xususida aniq ma'lumotlar mavjud emas. O'z navbatida bunday mavhumlik qator olimlar tomonidan kurashni qadimiy sport turlaridan biri sifatida e'tirof etilishi uchun to'siq bo'la olmadi. IX asrda kurash rivoji yangi bosqichga ko'tarildi. O'sha kezlarda zamonaviy O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi aholi an'anaviy bayramlar, to'y-hashamlar va yirik jamoatchilik tadbirlari

davomida kurashdan ko'ngil ochish va dam olish vositasi sifatida foydalanganlar. Keyinroq kurash ko'ngil ochish vositasidan mustaqil sport turi va jismoniy chiniqish usuliga aylandi. Eng kuchli kurashchilar xalq orasida ma'lumu-mashhur bo'lib, ular haqida afsonalar to'qila boshlandi. XII asrda yashab o'tgan Pahlavon Mahmud buning yaqqol namunasi. Hali-hanuz uning qabri ziyoratchilarning sevimli maskani va muqaddas qadamjoldan biri hisoblanadi.

XIV asrda insoniyat tarixida yorqin iz qoldirgan tengi yo'q sarkarda va davlat arbobi Amir Temur o'z askarlarini chiniqtirish va jismoniy tayyorgarligini oshirish maqsadida kurashdan foydalangan. Ma'lumki, Amir Temur armiyasi zamonasining eng qudratli va yengilmas qo'shini hisoblangan.

Vaqt o'tishi bilan kurash zamonaviy O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi aholining eng sevimli va ardoqli an'alaridan biriga aylandi. Shu ma'noda kurash o'zbeklarning qon-qoniga singib ketgan, deb aytish mubolag'a bo'lmaydi. Ushbu sport turiga bo'lgan muhabbat otalardan bolalarga meros sifatida o'tib keladi. Bugungi kunga kelib birgina O'zbekistonda kurash bilan muntazam shug'ullanuvchilarning soni ikki milliondan ortgan. Ushbu sport ishqibozlari va havaskorlarning soni esa behisobdir.

1980-yillarning boshida mashhur o'zbek kurashi ustasi, dyuzdochi va sambochi Komil Yusupov o'zbek kurashining boy merosini tadqiq etish ishlarini boshlab yubordi. Bu shaxsning asosiy maqsadi kurashning xalqaro me'yorlarga mos bo'lgan yangicha qoidalarini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi. To'qsoninchi yillarning boshlariga kelib bu sharafli vazifani muvaffaqiyatli ado etib o'zbek kurashini xalqaro arenaga olib chiqishni o'z oldiga maqsad qildi. Avvaliga u o'zi ishlab chiqqan kurash qoidalarini jamoatchilik, mutaxassislar va ishqibozlar e'tiboriga havola etdi.

Yangi qoidalar o'zbek kurashining eng ardoqli an'analari va maxsus kiyim bosh, musobaqalarni o'tkazish joyi va bellashuvning davom etish muddati kabi xalqaro sport me'yorlarini o'zida mujassam etdi. Sport mutaxassislari Komil Yusupov tomonidan ishlab chiqilgan kurash qoidalari to'laligicha xalqaro sport talablariga javob berishini e'tirof etdilar. Kurash qoidalarining asosiy afzalliklaridan biri shundaki, ular yotgan holda bellashuvni davom ettirilishiga yo'l qo'ymaydi. Sportchilardan birining tizzasiga gilamga tegishi bilanoq hakam bellashuvni to'xtatadi va kurashchilar turgan holda musobaqani davom ettirishadi. Bu hol kurashni tez sur'atlarda olib borilishi va muxlislar uchun qiziqarli va maroqli bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari kurash qoidalari belbog'dan pastki qismni ushlovchi yoki og'riq qo'zg'atuvchi va bo'g'uvchi uslublarni ishlatishni ta'qiqlaydi. Shu tariqa kurash sportchilarga

tan jarohati yetkazilishining oldi olingan eng xavfsiz sport turlaridan biriga aylandi[5].

1991-yilda O‘zbekiston mustaqilligi kurashga yangicha hayot baxsh etdi. Milliy sport turi hisoblanmish kurashni qayta tiklash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Kurashni haqiqiy xalqaro sport turiga aylantirish, keyinchalik esa olimpiada o‘yinlari dasturiga kiritish eng asosiy maqsad bo‘lib qolmoqda.

## XULOSA

Kurash faollarining sa‘y-harakatlari O‘zbekiston bilan chegaralanib qolmadi. Ular 1992-yildan boshlab Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Hindiston, AQSh, Monako va Rossiyada o‘tkazilgan qator nufuzli sport anjumanlarida o‘zbek kurashini tanitishga qaratilgan tadbirlarga bosh qosh bo‘ldilar. 2020-yil 4-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4881-son qarori asosida “Kurash milliy sport turini 2025-yilgacha yangi bosqichga olib chiqish Konsepsiyasi” ishlab chiqildi. Unda kurash milliy sport turini yanada ommalashtirish va rivojlantirishga to‘siq bo‘layotgan muammolar va ularni bartaraf qilish vazifalari belgilandi. Shu bilan birga Kurashni jahon xalqlarining sevimli sport turlaridan biriga aylantirish, uning insonparvar g‘oyalarini keng

targ‘ib qilish orqali jahonda O‘zbekiston nufuzini oshirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab olindi.

## REFERENCES

1. Shodi Bobomurodovich Umirov. Kurashchilar jismoniy fazilatlarini rivojlantirish. Scientific progress. 2021. 49-b
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek>
3. Yusupov K., Kurash, T., 1999; Mo‘minov A., Prezident. Sport. G‘alaba!, T., 2001.
4. <https://yuz.uz/uz/news>
5. Shodi Bobomurodovich Umirov. Milliy kurashning ommaviylashivida xalq bohodirlarining o‘rni. Central asian academic journal of scientific research. 2021. 151-b